

DEHQONCHILIK SOHASIDA VITAMINLARGA BOY OZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH

*Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi*

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti*

*1b-22 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada dehqonchilikda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda vitaminlarga boy mahsulotlar yetishtirishning ahamiyati bayon etilgan. Respublikamiz hududlarida yetishtirilayotgan poliz, meva-rezavorlar va uzum mahsulotlarining hajmi va tahlillari keltirilgan. Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi uchrayotgan ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, mazali va noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, dehqonchilik, mahsulotlar eksporti, innovatsiyalar, infrastruktura.

**Abstract:** The article describes the importance of growing vitamin-rich products in providing food to the population in agriculture. The size and analysis of the production of apples, berries and grapes grown in the regions of our republic are given. Also, some problems encountered in the field of agriculture were pointed out and appropriate recommendations were developed.

**Key words:** food products, food safety, delicious and unique agricultural products, agricultural products, farming, export of products, innovations, infrastructure.

### Kirish

Dunyoda har yili qariyb to'rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib taqsimlansa, bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo'lardi. Bir vator salbiy omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib boryapti. Oxirgi yillarda kuzatilgan jahondagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat esa mazkur muammoning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy mahsulotlar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Isrofgarchilik va ayrim imkoniyatlardan to'liq foydalanish oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lishni, oziq-ovqatga bo'lgan talabni to'laroq qondirishga yordam bergan bo'lar edi [7].

Sayyoramizda bugungi kundagi aholi soni 8,1 milliarddan oshdi. Tabiiyki, aholi soni o'sib borar ekan, ularni oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ortadi. Demak, bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hajmini oshirishni taqazo etadi [2].

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "O'zbekiston zamini o'zining qadimiy va boy dehqonchilik an'analari, g'oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi. Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo'lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror

narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda"[1].

Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash siyosati qachon samara beradi? Qachonki, mahsulot ishlab chiqarish va import qilish darajalari oqilona uyg'unlashtirilsa, bu borada aholi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratilsa, xalqaro pragmatik hamkorlik aloqalarni rivojlantirilsa, davriy ravishda yangilanib turadigan oziq-ovqat zaxirasini yaratishga ham qaratilgan bo'lsa.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi.

### Asosiy qism

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari – fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik esa – qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish va yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'rsatkichlarini tahlil qilgan holda o'rganishimiz mumkin.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan poliz ekinlari 2 553,5 ming tonnani, yoki 2022 yilning mos davri bilan solishtirganda 105,5 % ni tashkil etdi.

2022 yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 8,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,9 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,0 % o'sish qayd etildi [11].

### 1-jadval

#### Hududlar bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish

Hududlar	Ming tonna
Surhondaryo	337,3
Jizzax	301,5
Sirdaryo	294,1
Andijon	215,1
Buxoro	203,3
Qashqadaryo	190,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	183,5
Farg'ona	179,9
Samarqand	172,1
Xorazm	166,9
Namangan	134,4
Navoiy	104,6
Toshkent	70,1

Poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining eng katta ulushi Surxondaryo viloyati (13,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda, Jizzax (11,8 %), Sirdaryo (11,5 %) va Andijon (8,4 %) viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Shuningdek, poliz ekinlari umumiy hajmida eng kam ulush, Toshkent (2,7 %) va Navoiy (4,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (113,8 %), Qashqadaryo (109,9 %), Toshkent (107,1 %), Samarqand (106,7 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (105,8 %) va Sirdaryo viloyatida (105,5 %) qayd etildi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan meva va rezavorlar 3121,7 ming tonnani, yoki 2022 yilning mos davri bilan solishtirganda 104,1 % ni tashkil etdi.

2022 yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 5,9 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,2 % o'sish qayd etildi. Aksincha qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 4,9 % ni tashkil etdi [11].

**2-jadval**

**Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish**

<b>Hududlar</b>	<b>Ming tonna</b>
Andijon	696,8
Farg'ona	403,8
Samarqand	373,4
Namangan	366,7
Buxoro	303,4
Surhondaryo	180,3
Qashqadaryo	177,8
Xorazm	169,0
Toshkent	137,1
Navoiy	106,2
Jizzax	93,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	67,2
Sirdaryo	46,3

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng katta ulush Andijon (22,3 %), Farg'ona (12,9 %), Samarqand (12,0 %), Namangan (11,7 %) va Buxoro (9,7 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Sirdaryo viloyatida (1,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,2 %) kuzatildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda yuqori o'sish sur'atlari Qashqadaryo (107,3 %), Namangan (105,8 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (105,8 %), Navoiy (105,1 %), Samarqand (104,8 %) Sirdaryo (104,6 %), Farg'ona (104,5 %) Jizzax viloyatida (104,4 %) qayd etildi.

2023 yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan uzum 1 737,6 ming tonnani, yoki 2022 yil-ning mos davri bilan solishtirganda 98,7 % ni tashkil etdi.

2022 yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,5 % o'sish qayd etildi. Aksincha fermer xo'jaliklarida 2,5 % va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,5 % bo'ldi [11].

<b>Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish</b>	
<b>Hududlar</b>	<b>Ming tonna</b>
Samarqand	639,2
Buxoro	221,4
Farg'ona	179,1
Namangan	151,7
Qashqadaryo	110,0
Toshkent	87,8
Navoiy	85,6
Andijon	82,2
Surhondaryo	74,5
Xorazm	49,9
Jizzax	29,8
Sirdaryo	14,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,6

Yetishtirilgan umumiy uzum hajmining qariyb uchdan bir qismi Samarqand viloyati (36,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Buxoro (12,7 %), Farg'ona (10,3 %), Namangan (8,7 %) va Qashqadaryo (6,3 %) viloyatlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, uzum yetishtirish umumiy hajmidagi eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,7 %), Sirdaryo viloyatida (0,9 %) kuzatildi.

2022 yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Namangan (106,6 %), Qashqadaryo (104,2 %), Samarqand (103,4 %), Sirdaryo (103,0 %), Xorazm (102,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (102,2 %), Buxoro (102,1 %), Andijon (100,6 %), Jizzax (100,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlildan ma'lumki, sohada mahsulot yetishtirish ko'rsatkichlarida asosan ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

Lekin bu sohada muammolar mavjud emas, ular bartaraf etilgan degani emasdir. Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki sohani rivojlantirishga to'siq bo'luvchi ayrim muammolar mavjud – mahsulotlar eksportini rivojlantirishdagi muammolar [3,6], axborotlar ta'minotidagi aloqalarning qoniqarsizligi[4], innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llashdagi sustkashlik [5], raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi muammolar [8,9], sohada yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyojni yuqoligi [10].

Mavjud muammolarga qo'shimcha tarzda quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: qishloq xo'jaligi tabiat qonunlari amal qiluvchi soha bo'lganligi uchun uning faoliyatiga kutilmagan tabiiy hodisalarning ta'sir etib turishi (qurg'oqchilik, sel); ayrim hududlarda sho'r, sifati past ekin maydonlarining ulushining sezilarliligi; yer unumdorligining pasayib borishi; sohani rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni borligi; investitsiyalar yo'naltirishdagi to'siqlar; oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasi infrastrukturasi rivojlantirishga ehtiyojni mavjudligi va boshqa shu kabilar.

### Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda quyidagilar asosiy omil hisoblanadi: oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, ularga bo'lgan talab va taklif, joriy narxlar darajasi, oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy va jismoniy mavjudligi, oziq-ovqat zaxirasi, oziq-ovqat ta'minoti holati, aholi daromadlari, xalqaro mehnat taqsimoti, eksport va import tovarlar hajmi.

Shuningdek qishloq xo'jaligining dehqonchilik sohasida vitaminlarga boy mahsulotlarni yetishtirishni yanada rivojlantirish va hajmini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz – dehqonchilik qilish uchun yer berish tizimini takomillashtirish, yerdan samarali foydalanib, mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga o'z faoliyatini kengaytirishi uchun qo'shimcha yer maydonlarini ajratish, qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlarni ko'paytirish, hosildor navlarni yaratish, bu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan tanishish, tajriba almashish va boshqa shu kabilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция иштирокчиларига. <https://president.uz/uz/lists/view/6645>
2. Шарипов Қ. Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavfsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
3. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
4. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
5. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1978-1990.
6. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Пут в науку, (3), 92-103.
7. Холмурадов Р. ва бошқалар. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш – давр талаби. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>.
8. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ: АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА

XАТАРЛАРИ. Markaziy Osiyo Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnal, 2(01), 153-159.  
<https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

9. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). THE DIGITAL ECONOMY: ADVANTAGES AND RISKS. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 153-159.  
<https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

10. Nabijanovich, D. B., & qizi, D. X. B. (2024). Oziq-Ovqat Va Qishloq Xo'jaligini Barqaror Rivojlantirish Omillari. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(4), 25–28. Retrieved from  
<https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/view/844>

11. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.  
<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>